

DAVLAT TOMINIDAN MOLIYALASHTIRISHNING TA'LIM SIFATIGA TA'SIRINING XALQARO TAJRIBASI

Jo'rayeva Muslima Maxmudxon qizi

Toshkent shahridagi Puchon universiteti magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17640862>

Annotatsiya: Ushbu maqolada oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirishning xorij tajribalari tahlil etilgan bo'lib, xususan, AQSh va Evropa mamlakatlarining oliy ta'lim tizimini moliyalashtirishning o'ziga hos jihatlari hamda tajribalari o'rganilgan. Shuningdek, mazkur mavzuga doir xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlarning asarlari hamda tadqiqot ishlarida keltirilgan nazariy qarashlari bayon etilgan. Shu bilan birga, xorij tajribalari asosida atroflicha xulosalar shakllantirilgan.

Kalit so'zlar: AQSh, moliyalashtirish mexanizmi, xususiy OTMLar, federal byudjet, investisiya, universitet.

Abstract: This article analyzes the foreign experiences of financing higher education institutions, in particular, the specific aspects and experiences of financing the higher education system of the USA and European countries are studied. Also, the works and theoretical views of foreign and domestic economists on this topic, presented in research works, are described. At the same time, general conclusions were formed based on foreign experiences.

Key words: USA, financing mechanism, private HEIs, federal budget, investment, university.

Аннотация: В данной статье анализируется зарубежный опыт финансирования высших учебных заведений, в частности изучаются особенности и опыт финансирования системы высшего образования США и европейских стран. Также описаны работы и теоретические взгляды зарубежных и отечественных экономистов на данную тему, представленные в исследовательских работах. При этом общие выводы были сформированы на основе зарубежного опыта.

Ключевые слова: США, механизм финансирования, частные вузы, федеральный бюджет, инвестиции, университет.

Qaysi bir rivojlangan mamlakatlarga razm solmaylik, ta'lim tizimini moliyalashtirish natijasida ijtimoiy-iqti-sodiy barqarorlikka erishayotganini guvohi bo'lamiz. Shu munosabat bilan ta'kidlash zarurki, iqtisodiy jihatdan taraqqiy etgan mamlakatlarning barchasida ta'lim tizimi, shu jumladan, oliy ta'lim ham ijtimoiy-iqtisodiy rivojla-nishning asosiy omili sifatida e'tirof etiladi. Bunda taraqqiy etgan mamlakatlarning barchasida oliy ta'lim muas-salarini moliyalashtirishning asosiy manbai sifatida byudjet mablag'lari, ya'ni davlat byudjetining mablag'lari (unitar tuzilmaga ega bo'lgan davlatlarda) yoki federal va mintaqaviy byudjetlarning mablag'lari (federativ tuzil-maga ega bo'lgan mamlakatlarda) maydonga chiqadi. Amaliyotning ko'rsatishicha, iqtisodiy jihatdan taraqqiy etgan mamlakatlarda oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirishda davlat byudjeti mablag'lari ustuvorlik kasb etadi. Masalan, hozirgi paytda Avstriya, Italiya, Fransiya, Norvegiya, Daniya va Shvesiyada byudjet assignovaniyalari oliy ta'lim muassasalarini moli-yalashtirishning manbalari tarkibida 90 %ni tashkil qilmoqda. Bu ko'rsatkichning darajasi Buyukbritaniya, Portugaliya, Finlyandiya, Niderlandiya va Ispaniyada esa 80 %ga teng bo'lib, ularning barchasi oliy ta'lim sohasida yuqoridagi davlatlarning faol siyosat yurgizayotganligidan dalolatdir.

Oliy ta'lim tizimi zamonaviy industrial jamiyatda mamlakatlarning xalqaro raqobatbardoshligini ko'proq aniqlab bermoqda. Ana shuni his etgan va rivojlangan oliy ta'lim tizimiga ega bo'lgan ko'pgina xorijiy mam-lakatlar oliy ta'lim muassasalari faoliyati natijalarini baholashning yangi strategiyasiga o'tishmoqda. Yangi strategiyadagi asosiy o'zgarishlar natijalarga bog'liq ravishda oliy ta'lim muassasalari faoliyati va moliyalashti-rish natijalarini baholashning mexanizmini ishlab chiqish va joriy etish bilan bog'liqdir. Shu ma'noda, bu mam-lakatlarda oliy ta'lim sohasidagi yangi strategiya inson kapitali va ilmiy izlanishlarni rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, bu narsa alohida olingan mamlakatlar raqobat pozitsiyalarini mustahkamlashning zaruriy sharti bo'lib qolmoqda.

Davlat hisobidan moliyalashtirishning qisqarishi va xarajat-larning yuqori sur'atlarda o'sishi oliy ta'lim muassasalari asbob-uskunalar va binolarining hamda o'quv biblioteka fondining tez eskirishiga, pedagogik kadrlar malakasiga bo'lgan talablarning pasayishiga, ilg'or ilmiy asbob-uskunalar va o'quv-metodik materiallar va h.k.larning etishmasligiga olib keldi. Bunday sharoitda dunyoning ko'plab mamlakatlari AQShdan o'rnak olishga va uning talabalar yoki manfaatdor shaxslar, tashkilotlar va firmalar hisobidan oliy ta'lim muassasala-rini moliyalashtirishni kengaytirishga qaratilgan tajribasidan foydalanishga harakat qildilar. Moliyalashtirishning tarkibiy tuzilmasidagi bunday o'zgarishlar qolgan boshqa taraqqiy etgan mamlakatlarda o'qish uchun to'lovda keskin farqlarning vujudga kelishiga olib keldi.

AQSh oliy ta'limini moliyalashtirish ayniqsa XX asr boshlaridan boshlab davlat byudjeti mablag'laridan tashqari talabalar tomonidan to'lanadigan to'lov, grantlar va shartnomalar asosidagi xususiy sektor vakil-lari tomonidan ham keng moliyalashtirila boshlangan. AQSh oliy ta'lim muassasalari xarajatlarining o'rtacha 30 foizini davlat tomonidan moliyalashtiriladigan bo'lsa, oliy ta'lim muassasalarining o'z mablag'lari ham o'r-ta cha 30 foizini tashkil etadi.

Xususiy oliy ta'lim muassasalarida esa o'qish uchun to'lanadigan pullar, xususiy grantlar va xayriya mab-lag'lari asosiy moliyaviy manbalar hisoblanadi.

Oliy ta'lim muassasalari moliyaviy ta'minoti masalalari muvaffaqiyatli hal etilgan mamlakatlardan yana bir Buyuk Britaniya bo'lib, oxirgi bir necha o'n yil davomida bu mamlakatda oliy maktablarning faoliyatiga markaziy ma'muriyatning aralashuvi tobora kengayib bormoqda. Bu sohadagi islohotlarga 1988 yilda qabul qilingan "Ta'limni isloh qilish" to'g'risidagi qonun keng yo'l ochib bergan edi. Ushbu qonunga muvofiq universitetlarga grantlar bo'yicha Qo'mita tugatilib, u universitetlarni moliyalashtirish bo'yicha Kengashga almashtirilgan edi. U esa, o'z navbatida, politexnika maktablari va kollejlarni moliyalashtirish bo'yicha Kengash bilan qo'shil-ganidan so'ng 1992-yildagi "Oliy ta'lim to'g'risida"gi qonunga ko'ra oliy ta'limni moliyalashtirish bo'yicha Ken-gashga aylantirildi. Bu oliy ta'limni davlat tomonidan boshqarilishini markazlashtirdi. Kengash oldida hukumat tomonidan qo'yilgan vazifalarning orasida oliy ta'lim muassasalarining javobgarligini oshirish, ular ishining, xu-susan, o'qitish va ilmiy tadqiqotlarning sifatini baholash asosida OTM o'rtasida moliyaviy resurslarning taqsim-lanishini yaxshilash kabi vazifalar muhim o'rinni egalladi.

Buyuk Britaniyadagidek, Finlyandiya va Evropaning boshqa mamlakatlari huqumatlari OTMning institut-sional avtonomiyasi siyosati va natijalarga ko'ra ular faoliyatini baholash siyosati o'rtasida muvozanatni topishga intilmoqda. Germaniya, Shvesiya, Daniya va Avstriya universitetlari natijalarni yanada qattiqroq nazorat qilish evaziga moliyalashtirish dasturlari va grantlar bilan bog'langan masalalarda ko'proq moliyaviy avtonomiyaga ega bo'lishdi.

Niderlandiyada esa maxsus shkala bo'yicha baholanadigan ilmiy tadqiqotlarning unumdorligiga muvofiq ravishda ularni moliyalashtirishning maxsus mexanizmi joriy etildi.

O'tgan asr 90-yillarining oxirida ishlarning sifati va samaradorligini baholash asosida OTMni moliyalashtirish mexanizmi Kanadaning ikki – Alberta va Ontario – provinsiyalarida joriy etildi. Bu narsa, bir tomondan, AQSh va G'arbiy Evropa mamlakatlari tajribasining ta'siri natijasi bo'lsa, ikkinchi tomondan, byudjet xarajatlarining qisqarishi va oliy ta'lim sohasining kengayish tendensiyalari oqibatidir. Alberta provinsiyasida qo'llanilayotgan baholash tizimi sifat, ilmiy tadqiqotlar va samaradorlik reytinglarini o'z ichiga oladi. Tegishli reytinglarda yuqori pozitsiyalarni egallagan universitetlar moliyalashtirishni 2,75 foizga yoki 6,05 mln. dollarga oshirishga da'vo-garlik qilishlari mumkin. Ontario provinsiyasida hukumat 2000-yildan boshlab OTM yillik moliyalashtirishning 6%idan ko'prog'ini quyidagi uch me'zonlarga ko'ra yutuqlarni baholash asosida taqsimlash to'g'risida qaror qabul qildi: bitiruvchi talablar normativi; bitiruvchilarning bandlik normativi; bitiruvchilar va ish beruvchilarning ehtiyojlarini qondirish. Moliyalashtirishning ana shu yangi sxemasi bo'yicha taxminan 16,5 mln.dollarni universitetlar o'rtasida taqsimlash ko'zda tutilgan. Ana shu usulda Kanada hukumati universitetlarni mamlakatning iqtisodiy ehtiyojlariga yo'naltirishni, o'z ishining natijalari uchun ularning javobgarligini oshirishni ko'zda tutmoqda.

Xulosa sifatida shuni qayd etish lozimki, ular faoliyati natijalarini baholash asosida OTMni moliyalashtirish tizimidan foydalanish tajribasi yuqorida ko'rib o'tilgan IHRT mamlakatlarida quyidagi ikki umumiy tendensiya bilan xarakterlanadi:

- moliyalashtirishning yangi tizimi, bir tomondan, davlat va ikkinchi tomondan, OTM ma'muriyati va o'qituvchilar o'rtasida munosabatlarning keskinlashuviga olib kelmoqda. Davlat institusional samaradorlikni, jamiyatning kadrlarga bo'lgan talabini qondirish darajasini, bitiruvchilarning ishga joylashuvini va resurslarning sarflanishini o'lchaydigan ko'rsatkichlarga ustuvorlik bermoqda. O'z navbatida, universitetlar ma'muriyati va o'qituvchilar o'z tajribalarining xususiyatlarini va konkret OTMning missiyasini aks ettiradigan baholash metodlarini qo'llab-quvvatlashmoqda;

- davlat va OTM o'rtasidagi o'zaro munosabatlar o'zgarmoqda, OTM moliyaviy va iqtisodiy qarorlarni qabul qilishga jalb qilinmoqda. Bu juda katta o'zgarish hisoblanadi. Ayrim OTM o'z dastur va byudjetlarini nazorat qilishda katta huquqlarni berib, davlat bir vaqtning o'zida iqtisodiy samaradorlikni, kadrlar tayyorlash sifatini, o'qitishning ommaviylik darajasini va OTM rahbariyatining javobgarligini oshirish maqsadida oliy ta'lim tizimiga to'g'ridan to'g'ri aralashish huquqini o'ziga saqlab qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Psacharopoulos G., Returns to investment in education: a global update//World Development, 1994. – No22(9), – pp. 1325–1343.
2. Mingat A., Tan J. The Full Social Returns to Education: Estimates Based on Countries' Economic Growth Performance//Human Capital Development Working Paper 73. World Bank, Washington, DC. 1996.
3. Oliveria T., Pereira P. Who pays the bill?: Study cost and students income in Portuguese higher education//European Journal of Education, 2009. –No 24(1). – pp. 111–121.
4. Рахмонов Н. Олий таълим муассасалари сифатини ошириш ва рақобатбардошлигини таъминлаш//“Халқаро молия ва ҳисоб” илмий электрон журналі. No 2, апрель, 2019 йил.

5. Рустамова Д.Д. Ўзбекистонда олий таълим тизимини молиялаштириш масалалари//Замонавийтаълим. – 2014. – №8. – Б.9–12.6. Шеров А.Б. Олий таълим муассасаларини молиялаштиришнинг АҚШ тажрибаси. Scientific progress, 1 (6), 972-978.
7. Барбашин М.Ю. Институты высшего образования и социальные дилеммы (компаративный анализ российской и американской систем). // “Педагогика и просвещение”, 2013, No 2 (10). –С. 151–1